INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://science-research.org.uz/index.php/ITSE

EVIDENSIALLIK VA MIRATIVLIK HODISALARINING FUNKTSIONAL-SEMANTIK BOG'LILIGI

Ilmiy tadqiqotchi: ***Aliyeva Zebo Akram qizi***
Samarqand Davlat Chet Tillari Instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada mirativlik va evidensiallik hodisalarining funktsional va semantik o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur kategoriyalar yuzasidan tadqiq olib borgan olimlarning fikrlari keltirib o'tilgan.
Kalit so'zlar: mirativlik, evidensiallik, Delancey, Aikhenvald, kutilmagan ma'lumot;
Аннотация. В данной статье проанализированы функциональные и семантические сходства и различия между явлениями миративности и эвиденциальности. Кроме того, представлены взгляды исследователей, проводивших исследования по данным категориям.
Ключевые слова: миративность, эвиденциальность, Деланси, Айхенвальд, неожиданная информация.
Annotation. This article analyzes the functional and semantic similarities and differences between the phenomena of mirativity and evidentiality. In addition, it presents the views of scholars who have conducted research on these categories.
Keywords: mirativity, evidentiality, DeLancey, Aikhenvald, unexpected information.

Mirativlikning to'liq tavsifi "kutilmagan ma'lumotga nisbatan hayrat, qoyil qolish, taajub, ajablanish mazmunini ifodalovchi kategoriya sifatida beriladi. Uning mustaqil grammatik kategoriya (evidensiallikning semantik tarkibi emas, balki o'ziga xos tizim) sifatida maqomi Delancey (1997) tomonidan aniq ko'rsatib o'tildi. Aynan shu hodisa universal hodisa sifatida talqin qilinmoqda.

Mirativ ma'no ko'plab evidensiallik turlariga xos hisoblanadi. Mirativlik visual yoki bevosita malumotni adresat va adresant nuqtai- nazaridan baholashga asoslanadi. Ba'zi tillarda bu hodisa taxmin mayli (presumptive mood) tarzidagi grammatik kategoriyaga kiritiladi (Friedman 2003; 205-206).

Xususan, Lazard (2001) mirativlikni bevosita evidensial kategoriyaning eng muhim tarkibiy qismi sifatida tasniflaydi. Delancey (1997, 2001), Plungian (2001) va Aikhenvald (2004) kabi tilshunoslar mirativlikni evidensiallikdan farqli, biroq unga yaqin bo'lmagan hodisa sifatida talqin qiladilar. Masalan, Aikhenvald o'zining evidensiallikka bag'ishlangan asarida mirativlikka alohida o'rin ajratadi hamda uni "haqiqiy" evidensial kategoriyalar bilan teng darajada ochib beradi.

Kognitivlik o'z navbatida tafakkur va ong faoliyati bo'lib, ma'lum hudud vakillariga tegishli bo'lgan etnosning milliy, madaniy va ma'rifiy tushunchalari singari tafakkur mahsulidir. Kognitivlik intellektual faoliyat va tafakkurning mental xususiyatlarida tashkil topadi. Bu o'z navbatida ma'lumot qabul qilish bilan bog'liq. Ma'lumot qabul qilish visual, eshitish va boshqa jihatlar orqali amalga oshiriladi. Ma'lumot qabul qilish shuningdek voqelikka nisbatan guvohlik yordamida amalga oshiriladi. Ma'lumot qabul qilish va yetkazish voqea-hodisalarga guvohlik orqali yuzaga keladi. Tilshunoslikda bu hodisa evidensiallik atamasi bilan ma'lum. Mirativlik esa so'zlashuvchilarning atrof-muhit, undagi voqea-hodisalarga nisbatan xulq-atvor va munosabatini yoritishda xizmat qiladi.

Mirativlikni evidentsiallikdan ajratib olish uchun, quyidagi misolga e'tibor qatatish mumkin:

Bu toglarning havosi naqadar toza, maysalarning hidi kishini lohas qiladi! "Komissargayam osonmas! – o'yladi ota yo'lovchiga tikilib - butun halqning tashvishi boshida hammani to'ydirish g'amida-yu, o'zi to'yib non emaydi, boyaqish..."(H.G'ulom. Mash'al; 9)

Mazkur misol ham xulosaviy evidentsiallik, ham sezgi evidentsialligi ham mirativlikka misol bo'ladi. Xulosaviy evidentsiallik deganda ma'lumot etkazayotganlarning shaxsan tajribaga ega bo'lgan

yohud bo'lmaganligi, ammo bilvosita dalillardan olingan ma'lumotlarni boshqalarga etkazishini ko'rsatadi.

O'zbek tilida yana boshqa bir misol keltiradigan bo'lsak, u quyidagicha bo'lishi mumkin:

Voy o'zimizning Qo'shojon-ku! – dedi-da, rais buvaning qo'ltig'i tagidan lip etib o'tdi (O'.Hoshimov. Ajdarning tavbasi; 38)

Ingliz tilida esa quyidagilarni keltirish mumkin:

- *Wow, Altar of Justice! Marx was flanked by a city councilman named Nobel Wilts, who congratulated Marx on the fine police work.*
- *Did Joe really kill?!*
- *Do you believe Joe killed those seven people?!*
- *Looks that way but I don't know exactly (R.Srais. Chasing darkness; 70-71).*

Keltirilgan o'zbek tilidagi jumlalar ham mirativlik, ham xulosaviy evidentsiallik sirasiga kiradi. O'zbek tilidagi *voy, -ku, -da* yuklamalari va *xo'p, ko'p* olmoshlari aynan mirativlikni anglatuvchi morfologik va leksik birliklar sanaladi. Ingliz tilidagi *wow, really, exactly* ravishlari hamda *believe, don't know* fe'llari mirativlikni hosil qiluvchi birliklar sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, mirativlik kategoriyasi kutilmagan yohud butunlay yangi bo'lgan xabarga nisbatan kishilarning ajablanishi va hayron qolishi natijasida yangi fikrlarini ifodalashda yuzaga keladi. Bunda avval hech qachon bo'lmagan harakat yoki holat ilk marta sodir bo'layotganidagi nutqni misol qilib keltirishimiz mumkin. Mirativlik evidentsiallikdan farq qiluvchi boshqa kategoriya sifatida qaralib, u turli hil guruhlarga bo'linish orqali tahlil qilingan holatlarda uchraydi.

References

1. DeLancey, S. (1997). *Mirativity: The grammatical marking of unexpected information.* Linguistic Typology, 1(1), 33–52.
2. Friedman, V. (2003). *Evidentiality in linguistic typology* (pp. 205–206). Amsterdam: John Benjamins.
3. Lazard, G. (2001). *On the grammaticalization of evidentiality.* Journal of Pragmatics, 33(3), 359–367.
4. Plungian, V. A. (2001). *Types of evidentiality: Linguistic and typological aspects.* Journal of Pragmatics, 33(3), 383–400.
5. Aikhenvald, A. Y. (2004). *Evidentiality*. Oxford: Oxford University Press.